



ISSN 2091-5187

СЕРВИС

№1

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ЖУРНАЛ

2024



СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ 2024 йил, 1-сон

Муассис: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2008 йил 31 декабрда
0561-рақам билан рўйхатга олинган.

ЎЗР ОАК Риёсатининг 19.03.2017 й., 239/5-сонли қарори билан эътироф этилган

**Тахририят ижодий
жамоаси:**

Бош муҳаррир:
и.ф.д., проф. М.Э.Пўлатов

**Бош муҳаррир
ўринбосари:**
и.ф.н., проф. Д.Х.Асланова

Масъул котиб:
и.ф.д., проф. М.Қ.Пардаев

Муҳаррирлар:
и.ф.д. Ф.А.Сафаров
катта ўқит. Ш.З.Ўразов

Техник муҳаррир:
и.ф.н., доц. А.Н.Холиқулов

Корректор:
PhD С.А.Бабаназарова

Саҳифаловчи:
ассис. Х.Н.Очилова

1 йилда 4 мартаба
чоп этилади.

**Ўзбекистон ҳудудида
тарқатилади.**

Тахририят манзили:
140100, Самарқанд шаҳар,
Амир Темур кўчаси, 9-уй,

тел.: +998(66)233-28-38,
+998(66)233-17-88

факс: +998(366)231-12-53
эл.почта:

samisiservis@inbox.uz

Тахририят кенгаши раиси:

М.Э.Пўлатов – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис
институти ректори, и.ф.д., профессор

Тахририят кенгаши раиси ўринбосари:

Д.Х.Асланова – СамИСИ илмий ишлар ва
инновациялар бўйича проректори, и.ф.н., профессор

Тахрир кенгаши аъзолари:

Б.А.Бегалов – Ўзбекистон Республикаси Президенти
хузуридаги Статистика агентлиги директори, и.ф.д.,
профессор

М.Қ.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.К.Ғоибназаров – и.ф.д., профессор.

М.М.Мухаммедов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Д.Р.Зайналов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Муртазаев – ТДИУ СФ директори, и.ф.д., проф.

М.Р.Болтабаев – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Р.Х.Эргашев – ҚарМИИ профессори, и.ф.д.

И.С.Тўхлиев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

К.Б.Уразов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Қ.Ж.Мирзаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.И.Исроилов – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Г.М.Шодиева – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.Абдукаримов – СамИСИ профессори, и.ф.н.

Р.Қобилов – Самарқанд вилояти ҳокими ўринбосари

С.Н.Тошназаров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Р.Н.Нормахматов – СамИСИ профессори, т.ф.д.

А.Бектемиров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

М.Т.Алимова – СамИСИ профессори, и.ф.д.

З.Дж. Адилова – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Ш.О.Қувондиқов – СамИСИ профессори в.б., иқтисод
фанлари доктори

Л.Н.Халикова – СамИСИ профессори в.б., DSc

Ф.А.Сафаров – СамИСИ доценти в.б., DSc

Ғолиб Султонмуродович Мустафоев Қишлоқ жойларда хизмат кўрсатиш соҳасининг иқтисодий самарадорлигини баҳолаш	80
Marifat Umarovna Xudoyberdiyeva Xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ahamiyati	85
Askar Axrorovich Siddikov, Ahmadbek Nizomiddinovich Najmiddinov Xizmat ko‘rsatish korxonalarida innovatsion faoliyatni takomillashtirish yo‘nalishlari	87
ТУРИЗМ ВА МЕҲМОНХОНА ХЎЖАЛИГИ	
Muslimaxon Xolmatjon qizi Soxibova O‘zbekistonda ziyorat turizmi resurslarini samarali boshqarishning nazariy asoslari	90
Murodjon Rajabbayevich Matniyozov Methodological bases of formation of tourism image of the Khiva destination	96
Kamol Sharifovich Yuldashev Mustaqil turizm rivojlanishining evolyutsiyasi	100
Ўткир Дўснаевич Ражабов Ўзбекистонда диний туризм ривожланишининг салоҳияти ва истиқболлари	106
КИЧИК БИЗНЕС ВА ОИЛАВИЙ ТАДБИРКОРЛИК	
Gulnora Mardiyevna Shadiyeva Ra‘no Akbar qizi Qulmurodova Raqamli iqtisodiyot sharoitida kichik biznes va oilaviy tadbirkorlik – aholi turmush darajasini oshirishning bir omili sifatida	110
Saodat Toxirovna Toshaliyeva Mamlakatimizda kichik tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish holati tahlili	114
Имомназар Эгамбердиевич Турсунов, Кермен Антоновна Наминова, Тулкин Саидахмедович Шарипов Развитие малого и среднего бизнеса в условиях цифровой экономики	118
Гулнора Мардиевна Шодиева, Дилноза Азаматовна Тоғаева Хизматлар кўрсатиш соҳасида оилавий корхоналарни ташкилий-иқтисодий механизмларини такомиллаштириш	123
Layli Baxtiyorovna Navruz-zoda Inson tadbirkorlik qobiliyatini baholash maqsadida uning sifat xususiyatlarini tasniflash	130
МЕНЕЖМЕНТ ВА МАРКЕТИНГ	
Navruzbek Zarifovich Niyatov Xizmat ko‘rsatish sohasida boshqaruv samaradorligini oshirish	134
Shahlo Akramovna Maripova Modern digital tools in small business management	138
Bekzodjon Oblakulov, Shakhnoza Narkulova Marketing Analysis of International Brand in the Case of Borjomi	143
Абдухолик Эгамович Тангиров Иқтисодиётни модернизациялаш шароитида корхона бошқаруви ва уни ташкил этишининг моҳияти	147
Зулфия Мусаевна Усманова Перспективные направления совершенствования механизма управления персоналом	151
ИНВЕСТИЦИЯ	
Jahongir Ravshanbek o‘g‘li Hoshimov Yangi O‘zbekistonga xorijiy investitsiyalarni jalb etish holatining kompleks tahlili	155

ИНВЕСТИЦИЯ

Jahongir Ravshanbek o‘g‘li Hoshimov – TMI mustaqil tadqiqotchi, PhD

YANGI O‘ZBEKISTONGA XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB ETISH HOLATINING KOMPLEKS TAHLILI

Annotatsiya: maqolada iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish yo‘llari tadqiq etilgan. Xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlarning xorijiy investitsiyaga doir nazariy qarashlari keltirilgan. Shuningdek, xorijiy investitsiyalarni jalb etish holati kompleks tahlil qilingan va taklif va tavsiyalar shakllantirilgan.

Kalit so‘zlar: xorijiy investitsiya, Iqtisodiy erkinlik indeksi, investitsiya muhiti, eksport, Global Innovation Index.

Kirish. Yangilanayotgan O‘zbekiston iqtisodiyoti transformatsiyasi sharoitida barqaror rivojlanish va yuqori o‘sish sur‘atlarini ta‘minlashda xorijiy investitsiyalari faollashuviga erishish muhim o‘rin tutadi. “2022 - 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish, kelgusi besh yilda 120 milliard AQSH dollari, jumladan 70 milliard dollarlik xorijiy investitsiyalarni”¹ jalb etishga erishish uchun mamlakatimizda har yili “Toshkent xalqaro investitsiya forumi”ni o‘tkazib borishga alohida e‘tibor qaratilgan. Iqtisodiyotning ochiqligini va uning dunyo miqyosida krishini ta‘minlash va iqtisodiyotiga integratsiyasi uchun barcha shart-sharoitlarni yaratishni islohotlarning ustuvor yo‘llaridan biri etib belgilandi. Shuningdek, valyuta bozorini erkinlashtirildi, xorijiy investorlarga geologiya-qidiruv, neft kimyosi, tibbiyot va ta‘lim kabi sohalarda faoliyat yuritish imkoniyatlarini kengaytirildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada mantiqiy va tarkibiy tahlil qilish, guruhlashtirish, statistik tahlil, taqqoslash, omilli tahlil usullaridan foydalanildi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Xorijiy investitsiyalarning mazmun-mohiyati hamon turli iqtisodiy adabiyotlarda turlicha talqin qilinayotganini ta‘kidlab o‘tmoq lozim. Buni quyida keltirilganlar to‘liq tasdiqlaydi: «Xorijiy investitsiyalar aktivlar egasining to‘liq yoki qisman nazorati ostida moddiy boylik yaratish maqsadida foydalanish uchun moddiy va nomoddiy boyliklarni bir mamlakatdan boshqasiga o‘tkazilishini anglatadi»², «Xorijiy investitsiyalar – chet ellik investorlar tomonidan foyda olish maqsadida tadbirkorlik faoliyati obyektlariga joylashtiriladigan pul qiymatidagi mulkiy va nomulkiy huquqlardir»³, «Xorijiy investitsiyalar – muayyan bir mamlakat rezidentlarining aktivlardan foydalanish ustidan nazoratni qo‘lga kiritish uchun boshqa mamlakatlarning aktivlariga egalik qilishini anglatadi»⁴, «Xorijiy investitsiyalar – tadbirkorlik va boshqa faoliyat obyektlariga foyda olish yoki ijtimoiy samaraga erishish maqsadida bir mamlakat hududidan boshqa mamlakat hududiga joylashtiriladigan barcha turdagi mulkiy va intellektual qiymatliklardir»⁵.

Tahlil va natijalar. Mamlakatimizda investitsiya muhiti yaxshilangani natijasida iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri sarmoyalar yirik miqdorda faol jalb qilinmoqda. Natijada, 2022-yilda 2742 ta xorijiy investitsiya ishtirokida yangi qo‘shma korxonalar ro‘yxatdan o‘tkazildi. Biroq aytishimiz mumkinki, xorijiy investitsiyalarni, eng avvalo, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni samarali jalb etishni ta‘minlash – eng ustuvor

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni.

² Международное право об иностранных инвестициях | Высшее образование в Кембридже (cambridge.org).

³ Семочкина М. А. Инвестиционная деятельность с участием иностранных инвесторов в Российской Федерации (правовой аспект). Дисс. на соиск. уч. ст. канд. юрид. наук. – М.: МГУ. – С. 152.


⁴ Левенцев Н.Н., Костюнина Г.М. Международное движение капитала: инвестиционная политика зарубежных стран: Учебник. – М.: Экономист, 2007. – С. 8.

⁵ Сулейманов М.Д., Михин А.А. Иностранные инвестиции. Монография. – М.: МНИ, 2011. – С. 6-7.

vazifalarimizdan biri hisoblanadi desak to‘g‘ri bo‘lar edi. 2026 yilgacha xorijiy investitsiyalarni jalb etish bo‘yicha yangi strategiyani ishlab chiqish, shuningdek, ularni mamlakatda saqlab qolish, tarmoqlar va hududlar bo‘yicha yanada kengroq taqsimlash bo‘yicha kelgusi ishlari ya‘nada rivojlantirishga xizmat qiladi.

Qulay investitsiya muhitini yaratish bo‘yicha amalga oshirgan islohotlarimiz natijasida so‘nggi 5 yilda iqtisodiyotimizga kirib kelgan xorijiy investitsiyalar hajmi 10 barobar oshib, qariyb 40 milliard dollarni tashkil etdi. O‘zbekistonning boy tabiiy resurslarini o‘zlashtirishda katta imkoniyatlar mavjud. Mamlakatimiz oltin zaxiralari bo‘yicha dunyoda 2-o‘rinni, mis bo‘yicha – 7-o‘rin, volfram bo‘yicha – 8-o‘rin, kumush bo‘yicha – 9-o‘rin, uran bo‘yicha – 12-o‘rinni qayd etgan.

Mustaqillik yillarida investitsiya jarayonlari keskin o‘zgarishlarga uchradi. 1-rasmdan ko‘rinib turibdiki, 2017-yilda xorijiy investitsiyalarning umumiy hajmi 3,3 mlrd dollarni tashkil etdi. Biroq, so‘nggi yillarda bu ko‘rsatkich yillar davomida o‘sish tendensiyalari kuzatildi. 2017 yildagi xorijiy investitsiyalar ulushi 2017-yilga nisbatan qariyb 6 baravar ko‘paygan. Bu haqda batafsil ma‘lumotlar 1-rasmda keltirilgan.



1-rasm. To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar oqimi mlrd AQSH dollar¹

2022-yil jahonda global to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar oqimi 1831,17 milliard dollarni tashkil etdi, bu 2021-yilga nisbatan 12,71 foizga kamaydi. 2021-yil uchun jahon xorijiy investitsiyalar 2097,72 milliard dollarni tashkil qildi, bu 2020-yilga nisbatan 64,14 foizga ko‘pdir. 2020-yil uchun xorijiy investitsiyalar 1278,01 milliard dollarni yetgan, bu 2019-yilga nisbatan 24,87 foizga kamaydi. 2019-yilda global xorijiy investitsiyalar 1701,04 milliard dollarni tashkil qilgan, bu 2018-yilga nisbatan 80,44 foizga ko‘pdir.

Xorijiy investitsiyalar rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotini rivojlantirishda asosiy generatori hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar mamlakatning ishlab chiqarish va bandlik darajasini oshirishga, ichki kapital bozorini to‘ldirishga ta‘sir qiladi. Xorijiy investitsiyalarni yanada ko‘proq jalb qilish uchun har bir davlat investitsiya jozibadorligini oshirish, xorijiy investitsiyalar samaradorligini tahlil qiladi va davlat investitsiya dasturini ishlab chiqadi; investorlarga ko‘plab imtiyoz va kafolatlar beradi.

1-jadval

Dunyo mintaqalari bo‘yicha global to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar² taqsimoti, milliard AQSH dollar

Mintaqalar	2018-y.	2019-y.	2020-y.	2021-y.	2022-y.
Dunyoda	942,71	1 701,04	1 278,01	2 097,72	1 831,17
Sharqiy Osiyo va Tinch okeani	599,06	530,66	588,66	807,39	644,67
Shimoliy Amerika	257,41	363,69	179,77	513,1	404,87
Yevropa Ittifoqi	529,6	356	287,95	404,58	403,24
Yevropa hududi	-0,52	202,9	64,16	240,17	274,67

¹ <https://miit.uz/oz/menu/investitsionnyj-klimat>


² World Investment Report 2023 ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Lotin Amerikasi va Karib dengizi	209,51	197	148,25	207,32	215,02
Janubiy Osiyo	48,66	56,68	68,96	50,06	53,61
Afrikaning Sahroi Kabir	29,08	27,45	23,8	73,93	7,15

O‘zbekistonga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish so‘nggi yillarda o‘n barobarga oshdi. 2017-yilda boshlangan hukumatning keng ko‘lamli islohotlari sababli Markaziy Osiyo davlatlari ichida xorijiy kapitalni jalb qilish bo‘yicha yuqori natijalarga erishdi va bugungi kunda investorlar soni ortib bormoqda. Shuningdek, vizasiz sayohat, past soliqlar va o‘sib borayotgan o‘qimishli aholining barchasi chet el kapitalini jalb qilishga e‘tibor qaratmoqda. So‘nggi yillarda xorijiy investitsiyalar hajmi sezilarli darajada oshdi va kelgusi to‘rt yil ichida 100 milliard yevrodan ortiq mablag‘ jalb qilishga erishdi.

Global Innovatsiyalar indeksi (GII) eng so‘nggi global innovatsiya tendensiyalarini kuzatib boradi va 132 ga yaqin davlat iqtisodiyotining innovatsion samaradorligini baholaydi¹. 2022-yilda eng yuqori innovatsion iqtisodiyotlar ega mamlakatlar biri Shveysariya 2022-yilda dunyoning eng innovatsion iqtisodiyoti davlati bo‘ldi – ketma-ket 12 yil davomida birinchi o‘rini egallagan – undan keyingi o‘rinlarda AQSh, Shvetsiya, Buyuk Britaniya va Niderlandiya kabi davlatlarga to‘g‘ri keldi. GII 2022 ma‘lumotlariga ko‘ra, Xitoy birinchi o‘ntalikka kirishi rejalashtirmoqda, Turkiya va Hindiston esa birinchi marta 40 talikka kirish chora-tadbirlarini ko‘rmoqda.

Mamlakatimizni ham Global Innovatsiyalar indeksdagi o‘rnini tahlil qilib chiqamiz. Ushbu indeks dunyo miqyosida O‘zbekiston nufuzini oshiradi, mavqeyini mustahkamlaydi va shaffofligini ta‘minlab boradi (2-rasm). O‘zbekiston GIIGA kiritilgan 132 ta davlat iqtisodiyoti ichida 82-o‘rinni egalladi.



2-rasm. 2020-2022-yillarda O‘zbekistonning Global Innovation Indexdagi reytingi²


O‘zbekiston 2022-yilda innovatsiyalar natijalariga qaraganda innovatsiyalarga kirish bo‘yicha yaxshiroq natijalar ko‘rsatmoqda. 2022-yilda O‘zbekiston innovatsiyalar kiritish bo‘yicha 68-o‘rinni egalladi, bu 2021 va 2020-yillardagidan yuqori natija hisoblanadi. Innovatsiyalar bo‘yicha O‘zbekiston 91-o‘rinni egalladi. Bu pozitsiya 2021 va ham yuqoriroq natijani qayd etgan.

“O‘zbekiston iqtisodiyoti so‘nggi yillarda kuchli o‘tdi, 2020-yilni hisobga olmaganda, o‘shish ijobiy bo‘lsa-da, sust edi. Iqtisodiy erkinlik xuddi shu davrda rivojlangan. Investitsion erkinlik va moliyaviy erkinlik bo‘yicha ko‘rsatkichlarning katta o‘sishi qonun ustuvorligi bo‘yicha ko‘rsatkichlarning pasayishini ortda qoldirgan holda, O‘zbekiston 2017-yildan buyon iqtisodiy erkinlik bo‘yicha umumiy o‘shish 3,4 ballni qayd etdi va “Asosan erkin bo‘lmagan”

¹ https://www.wipo.int/edocs/pubdocs/en/wipo_pub_2000_2022/uz.pdf

² Global Innovation Index 2022.

mamlakatlarning o‘rta qatoridan joy oldi. Moliyaviy barqarorlik mustahkam, ammo hukumatning yaxlitligi va sud tizimining samaradorligi zaif tomonlarini ko‘rsatadi. Indeks metodologiyasiga kiritilgan o‘zgartirishlar natijasida barcha MDH davlatlari reytingida ballar qiymatining pasayishi qayd etilgan va faqat ikki davlat (Moldova va Turkmaniston) o‘z pozitsiyalarini yaxshilagan.



3-rasm. Mustaqil Davlatlar Hamdo‘sligi (MDH) davlatlarining “Iqtisodiy erkinlik indeksi – 2022”dagi o‘rni¹

O‘zbekistonning iqtisodiy erkinlik ko‘rsatkichi 56,5 ball bo‘lib, iqtisodiyoti 2023 yil indeksida 109-o‘rinni egalladi. Uning ko‘rsatkichi o‘tgan yilga nisbatan 0,8 ballga yuqori. O‘zbekiston Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi 39 davlat orasida 23-o‘rinni egallab, umumiy reytingi jahondagi o‘rtacha ko‘rsatkich hisoblandi.

Davlatimiz Markaziy Osiyodagi eng diversifikatsiyalangan iqtisodiyotga ega bo‘lib, mineral va metall boyliklari, jumladan, oltin, shuningdek, to‘qimachilik va xizmatlar, qulay valyuta zaxiralari, davlat investitsiya dasturlari va mintaqadagi eng ko‘p aholiga ega mamlakat deyish mumkin.

Investitsiya muhitini va salohiyatini, tahlil qilinishi asosida investitsiya riskliligi baholanadi va aniqlanadi. Investitsiya muhiti va riskliligi darajalari bir-biriga teskari desak to‘g‘ri bo‘lar edi. Investitsiya muhiti qanchalik qulay bo‘lsa, investorning tadbirkorlik riskliligi shunchalik past darajada bo‘ladi va bu investorlarning ya’nada ham ko‘p investitsiya jalb qilishiga imkon beradi. Biroq, investitsiya muhiti yaxshi bo‘lmasa agar, tavakkal darajasi yuqori bo‘ladi. Buning natijasida, investitsiya qabul qiluvchi tomonning xarajatlarining o‘shishiga olib keladi. Investitsiya muhitining holati faqat investor uchun emas, balki investitsiya qabul qiluvchi uchun ham muhim hisoblanadi. Shuning uchun ham xalqaro indekslarga a‘zo bo‘lsak, mamlakatimiz investitsion muhitini va salohiyatini ushbu idekslar yordamida xorijiy investorlarga ko‘rsata olamiz natijada, investorlar yuqoridagi ko‘rsatib o‘tgan reyting bergan ma’lumotlar asosida ya’nada ham ko‘p investitsiya kiritgan bo‘lar edi.

Ayni paytda, O‘zbekistonda jozibador investitsiya muhiti yaratilgan, deb aytish bir muncha murakkabroq, ammo, ko‘pchilik xorijiy investorlar xorijiy biznes faoliyatini uchun barqaror rivojlanish shart-sharoitlari mavjudligini ko‘rsatadi. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishdagi asosiy to‘siqlar sifatida iqtisodiyotdagi byurokratiya holatlari, kuchli monopoliya, investitsiya nizolarini hal etishda sud tizimidagi muammolar, mavjud qonunchilikka amal qilmaslik, korrupsiya va

¹ Heritage Foundation (“Meros” jamg‘armasi, AQSH) tomonidan “Iqtisodiy erkinlik indeksi – 2022”. Ma’lumotlari asosida tayyorlandi.

jinoyatchilikka qarshi kurashning samarasizligi hamda yetarlicha rivojlanmagan infratuzilmani sanab o'tish mumkin. Xorijiy investitsiya ishtirokidagi loyihalarning viloyat va tuman hududlarida amalga oshirilishi, aynan shu hududlarda infratuzilmani rivojlantirishga va ishsizlikni kamaytirishga olib keladi.

Xulosa va takliflar. Yuqoridagilardan kelib chiqib, xulosa qilish mumkinki, Yangi O'zbekiston iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun zarur asosiy shart-sharoitlar mavjud va uni chet ellik investorlar uchun ya'nada takomillashtirish zarur deb hisoblaymiz. Shuningdek, xorijiy investitsiyalarni jalb etishda eng avvalo, iqtisodiyotning hududiy tarkibi xususiyatlarini e'tiborga olish lozim. Respublika hududlarining iqtisodiy, tabiiy resurslar salohiyati va mavjud ishlab chiqarish ijtimoiy va bozor infratuzilmasi shart-sharoitlari xorijiy investitsiyalarni jalb etishda to'la hisobga olinishi kerak.

Xorijiy investitsiyalarni jalb etishni yanada rivojlantirish uchun quyidagi takliflarni amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

— davlatimizga dunyo darajasidagi texnologiyani yetkazib berayotgan, xorijiy sarmoyadorlarga imtiyoz va preferensiyalarni taqdim etish tizimini takomillashtirish lozim;

— hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini inobatga olgan holda, Statistika agentligi tomonidan har bir hududning (viloyatlar, Toshkent shahri va Qoraqalpog'iston Respublikasi) investitsion muhit jozibadorligi bo'yicha «Yillik statistik xarita» e'lon qilib borilishini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiqdir;

— xalqaro reytinglarda ishtirokini ta'minlash va mavjud reyting ko'rsatkichlarida egallagan o'rining past bo'lganda kompleks tadbirlarni amalga oshirish zarur;

— davlat-xususiy sherikchiligi imkoniyatidan to'liq foydalanish. Yirik investitsion loyihalarni amalga oshirishda davlat va xususiy sektor uyg'unligini ta'minlash kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. <https://invest.gov.uz/uz/mediacenter/news/development-strategy-of-the-new-uzbekistan/>
2. Международное право об иностранных инвестициях | Высшее образование в Кембридже (cambridge.org).
3. Семочкина М. А. Инвестиционная деятельность с участием иностранных инвесторов в Российской Федерации (правовой аспект). Дисс. на соиск. уч. ст. канд. юрид. наук. – М.: МГУ. – С. 152.
4. Левенцев Н.Н., Костюнина Г.М. Международное движение капитала: инвестиционная политика зарубежных стран: Учебник. – М.: Экономист, 2007. – С. 8.
5. Сулейманов М.Д., Михин А.А. Иностранные инвестиции. Монография. – М.: МНИ, 2011. – С. 6-7.
6. Heritage Foundation (“Meros” jamg'armasi, AQSH) tomonidan “Iqtisodiy erkinlik indeksi – 2022”.
7. <https://miit.uz/oz/menu/investitsionnyj-klimat>
8. <https://www.globalinnovationindex.org/Home>

<p>Дж.Хошимов</p> <p>Комплексный анализ состояния привлечения иностранных инвестиций в Новый Узбекистан</p> <p>Аннотация: в статье рассматривается роль иностранных инвестиций в развитии экономики и созданные для них правовые и экономические условия. Также было всесторонне проанализировано состояние привлечения иностранных инвестиций. Сделаны предложения и рекомендации по привлечению иностранных инвестиций.</p> <p>Ключевые слова: иностранные инвестиции, прямые иностранные инвестиции, инвестиционная среда, экспорт, Global Innovation Index.</p>	<p>J.Khoshimov</p> <p>A complex analysis of the situation of attracting foreign investments to the New Uzbekistan</p> <p>Abstract: the article examines the role of foreign investments in the development of the economy and the legal and economic conditions created for them. Also, the state of attracting foreign investments was comprehensively analyzed. Proposals and recommendations for attracting foreign investments have been made.</p> <p>Keywords: foreign investment, foreign direct investment, investment environment, export, Global Innovation Index.</p>
---	---

ISSN 2091-5187

∞ “СЕРВИС” ∞

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят
бўлимида нашрга тайёрланди.

06.03.2024 йилда теришга берилди. 29.03.2024 йилда босишга рухсат этилди.
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84_{1/8}. “Times” гарнитураси. Офсет
босма усули. Шартли босма табағи 15,76. Ҳисоб-нашриёт
табағи 12,5. Адади 100 нусха. Буюртма № 0024А/30.

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг
матбаа бўлимида чоп этилди.
Лицензия № 025316.
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2024.